
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI

Sulaymonqulov Islomjon
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCINCE
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi Pedagogika yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kimyo o‘qitish metodikasining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan jahon kimyo fanidagi fundamental nazariy kashfiyotlar hamda O‘zbekistonda ushbu sohaning tarixiy rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. M. V. Lomonosov, A. Lavuazye, J. Dalton, D. I. Mendeleyev va A. M. Butlerovning ilmiy qarashlari hamda kashfiyotlarining kimyo ta’limi metodologiyasi shakllanishiga ko‘rsatgan ta’siri yoritiladi. Shuningdek, respublikada kimyo fani o‘qituvchilarini tayyorlash tizimining rivojlanishi, mahalliy metodist-olimlarning ilmiy-pedagogik faoliyati, milliy darsliklarning yaratilishi hamda mustaqillik davrida kimyo ta’limi mazmunining yangilanishi va takomillashuvi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kimyo o‘qitish metodikasi, tarixiy taraqqiyot, ilmiy-pedagogik maktab, metodist-olimlar, milliy darsliklar, kimyo ta’limi, ta’lim islohotlari.

СТАНОВЛЕНИЕ И ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье представлен научный анализ фундаментальных теоретических открытий в мировой химической науке, оказавших влияние на становление методики преподавания химии как самостоятельного научного направления, а также исторических этапов развития данной области в Узбекистане. Рассматривается влияние научных взглядов и открытий М. В. Ломоносова, А. Лавуазье, Дж. Дальтона, Д. И. Менделеева и А. М. Бутлерова на формирование методологических основ химического образования. Кроме того, исследуются развитие системы подготовки учителей химии в республике, научно-педагогическая деятельность отечественных учёных-методистов, создание национальных учебников, а также обновление и совершенствование содержания химического образования в период независимости.

Ключевые слова: методика преподавания химии, историческое развитие, научно-педагогическая школа, учёные-методисты, национальные учебники, химическое образование, образовательные реформы.

THE FORMATION AND HISTORICAL DEVELOPMENT OF CHEMISTRY TEACHING METHODOLOGY IN UZBEKISTAN

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the fundamental theoretical discoveries in the development of chemistry worldwide that influenced the establishment of chemistry teaching methodology as an independent field of scientific inquiry, as well as the historical stages of its development in Uzbekistan. Particular attention is given to the influence of the scientific ideas and discoveries of M. V. Lomonosov, A. Lavoisier, J. Dalton, D. I. Mendeleev, and A. M. Butlerov on the formation of the methodological foundations of chemistry education. Furthermore, the article examines the development of the chemistry teacher education system in Uzbekistan, the scientific and pedagogical contributions of national scholars specializing in teaching methodology, the development of national textbooks, and the modernization and improvement of chemistry education curricula during the post-independence period.

Keywords: chemistry teaching methodology, historical development, scientific and pedagogical school, scholars of teaching methodology, national textbooks, chemistry education, educational reforms.

KIRISH

Kimyo ta’limi tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, tabiatdagi moddalarning tarkibi, tuzilishi va o‘zgarishlarini anglash, nazariy bilimlarni amaliy kuzatishlar bilan bog‘lashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish kimyo fanining mazmunigina emas, balki uni o‘qitishning maqsadi, tamoyillari, metodlari va tashkiliy shakllarini ham ilmiy asosda ishlab chiqishni talab etadi. Shu ehtiyoj natijasida kimyo o‘qitish metodikasi pedagogika, psixologiya, didaktika va kimyo fanlari bilan uzviy aloqador bo‘lgan mustaqil ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida rivojlandi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kimyo o‘qitish metodikasining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish bugungi ta’lim mazmunining shakllanish sabablarini anglashga yordam beradi. Jahon kimyo fanidagi nazariy o‘zgarishlar, O‘zbekistonda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi va milliy o‘quv adabiyotlarining yaratilishi mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismlaridir. N. G‘. Rahmatullayev, H. T. Omonov va Sh. M. Mirkomilov kimyo o‘qitish metodikasini kimyoviy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning intellektual va tarbiyaviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi soha sifatida izohlaydilar [1, 8–9-b.].

Kimyo o‘qitish metodikasining shakllanishi kimyoning mustaqil fan sifatida rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. XVIII asrda kimyoviy hodisalarni tajriba

asosida tekshirish, moddalarning tarkibi va xususiyatlarini ilmiy tushuntirishga intilish kuchaydi. M. V. Lomonosovning moddalarning zarrachaviy tuzilishi, zarrachalar harakati va kimyoviy jarayonlarni tajriba orqali o‘rganishga doir qarashlari kimyo ta’limida kuzatish hamda nazariy xulosalarni o‘zaro bog‘lash zaruratini kuchaytirdi. A. Lavuazye asoslagan massaning saqlanish qonuni, J. Daltonning atomistik nazariyasi va S. Kannitsaroning atom-molekulyar qarashlarni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi kimyoviy bilimlarning izchil tizimga solinishiga zamin yaratdi. Bu ilmiy yutuqlar ta’lim jarayonida qonunlarni shunchaki yodlash emas, balki ularning mazmunini tushunish, tajriba natijalarini tahlil qilish va dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish yondashuvini mustahkamladi. 1869-yilda D. I. Mendeleyev tomonidan davriy qonunning kashf etilishi kimyo ta’limi mazmunini tizimlashtirishda alohida ahamiyat kasb etdi. Davriy sistema elementlarni alohida faktlar sifatida emas, balki ularning xossalari va o‘zaro bog‘liqligi asosida o‘rganish imkonini berdi. Mendeleyevning “Kimyo asoslari” asarida davriy qonuniyatga tayangan bayon usuli anorganik kimyo ta’limining metodologik asoslariga ta’sir ko‘rsatdi [1, 9-b.].

A. M. Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasi organik birikmalarning xossalarini ularning tarkibi va tuzilishi bilan izohlash imkonini berdi. Natijada organik moddalarni sinflarga ajratish, tuzilish va xossa o‘rtasidagi munosabatni izchil tushuntirish uchun nazariy asos yuzaga keldi. Demak, kimyo fanidagi yirik kashfiyotlar o‘quv materialini tanlash va ketma-ket joylashtirish bilan birga, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish tamoyilini ham rivojlantirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda kimyo o‘qitish metodikasining alohida ilmiy-pedagogik yo‘nalish sifatida shakllanishi XX asrning 30-yillaridan boshlab jadallashdi. Pedagogika institutlarining tashkil etilishi, kimyo o‘qituvchilarini tayyorlashning yo‘lga qo‘yilishi va metodik fanlarning o‘quv rejalariga kiritilishi ushbu jarayonning institutsional asoslarini yaratdi. Dastlab metodika umumiy pedagogik hamda kimyoviy bilimlar bilan birgalikda o‘rgatilgan bo‘lsa, keyingi davrda uni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish kuchaydi. 1960-yillardan boshlab pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kimyo o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va maxsus izlanishlar olib borish rivojlandi. Bu borada Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti kimyo kafedrasi faoliyati muhim o‘rin egalladi. Professor R. Q. Qodirov rahbarligidagi tadqiqotlarda maktab kimyo kursini mahalliy xomashyo, tabiiy resurslar va ulardan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘lash masalalariga e’tibor qaratildi [1, 9-b.].

Respublikada kimyo o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy qarashlarning rivojlanishida H. T. Omonov, N. G‘. Rahmatullayev, Sh. M. Mirkomilov, M.

Nishonov, A. Mamajonov, T. Gulboyev, G‘. Boymurodov, M. Umarov, Sh. Quvvatov, E. Eshchanov va F. Alimova kabi olimlarning izlanishlari qayd etiladi. Ularning ishlari kimyo ta’limining nazariy mavzularini o‘qitish, laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish yo‘nalishlarini qamrab olgan.

H. T. Omonovning kimyo metodologiyasi va metodikasiga oid ishlari sohaning nazariy masalalarini yoritishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. H. Omonov va M. Mirvoxidovaning “Kimyo metodologiyasi va metodikasining ayrim masalalari” qo‘llanmasida kimyo fanining metodologik jihatlari hamda uni o‘qitish muammolari ko‘rib chiqilgan [3]. M. Nishonovning “Kimyo o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasi bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy-metodik tayyorgarligini shakllantirishga yo‘naltirilgan [2]. N. G‘. Rahmatullayev, H. T. Omonov va Sh. M. Mirkomilov hammuallifligidagi 2013-yilda nashr etilgan darslik esa ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, tashkiliy shakllar va kimyoviy tajribalarni umumlashtirgan muhim manba hisoblanadi [1].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ta’lim mazmunini milliy manfaatlar, respublikaning tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlari va zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji yuzaga keldi. Kimyo fanini mahalliy ishlab chiqarish, tabiiy resurslar va mamlakatning ilmiy salohiyati bilan bog‘liq holda o‘qitish milliy o‘quv adabiyotlarini yaratish jarayonining muhim yo‘nalishiga aylandi.

1993-yildan boshlab A. Mamajonov, M. Nishonov va S. Teshaboyev tomonidan tayyorlangan kimyo darsliklari maktab ta’limiga joriy etila boshladi. Ushbu darsliklarda asosiy kimyoviy tushunchalar bilan bir qatorda, O‘zbekistonning tabiiy-kimyoviy zaxiralari, ulardan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, Sharq mutafakkirlarining kimyoga oid merosi va respublikada faoliyat yuritgan kimyogarlarning ilmiy izlanishlariga ham o‘rin berildi [1, 9–10-b.].

Mineral xomashyo, tabiiy gaz, neft, osh tuzi va fosforit kabi resurslarga oid misollar kimyoviy bilimlarning amaliy ahamiyatini ochib berishga yordam berdi. 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va o‘sha davrdagi ta’lim qonunchiligi ta’limning uzluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish uchun muhim huquqiy-tashkiliy zamin yaratdi. Keyingi bosqichda ta’lim sohasining huquqiy asoslari yangilandi. Amaldagi asosiy hujjatlardan biri 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonundir [4].

XULOSA

Kimyo o‘qitish metodikasining taraqqiyoti kimyo fanidagi nazariy kashfiyotlar, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi va ta’lim mazmuniga qo‘yilgan ijtimoiy talablar bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Lomonosov, Lavuazye, Dalton,

Mendeleyev va Butlerovning ilmiy qarashlari kimyoviy bilimlarni dalillar, qonuniyatlar va tizimli tushuntirish asosida o‘qitish uchun muhim zamin yaratdi.

O‘zbekistonda mazkur metodikaning institutsional shakllanishi XX asrning 30-yillaridan boshlab jadallashib, 1960-yillardan ilmiy tadqiqotlar olib borish va pedagogik kadrlar tayyorlash orqali mustahkamlandi. Mahalliy olimlarning ilmiy-metodik ishlari, milliy darsliklarning yaratilishi hamda ta’lim mazmuniga respublikaning tabiiy resurslari va ishlab chiqarish tajribasining kiritilishi sohaning milliy xususiyatlarini kuchaytirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmatullayev N. G‘., Omonov H. T., Mirkomilov Sh. M. Kimyo o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. – 320 b.

2. Nishonov M. Kimyo o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – 110 b.

3. Omonov H., Mirvoxidova M. Kimyo metodologiyasi va metodikasining ayrim masalalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2003.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/5013007

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna